



**SEMIZLIK: ZAMONAVIY TIBBIYOTNING GLOBAL MUAMMOSI
SIFATIDA**

Sattarov O.T., Fayziyev S.I.

Annotatsiya

Ushbu maqolada semizlikning zamonaviy tibbiyotdagi o'rni, uning metabolik, yurak-qon tomir, endokrin, nafas olish va onkologik kasalliklar bilan bog'liqligi, davolash usullarining samaradorligi va bariatrik jarrohlikning afzalliklari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, semizlik inson umr davomiyligiga ta'siri va kelajakdagi xavf omillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: semizlik, metabolik sindrom, morbid semizlik, bariatrik jarrohlik, ortiqcha vazn, konservativ davolash, umr davomiyligi

Kirish.

XXI asrda semizlik dunyo miqyosida eng tez o'sib borayotgan surunkali kasalliklardan biri hisoblanadi. U rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy jihatdan o'sib kelayotgan hududlarda ham yuqori darajada tarqalgan bo'lib, global sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammo sanaladi. JSST tomonidan 1997-yilda semizlik rasmiy ravishda global epidemiya deb e'lon qilingan. Mazkur kasallikning yuqori xavfliligi uning ko'plab tizimli kasalliklar bilan birgalikda kechishi va umr davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq.

Asosiy qism

1. Semizlikning klinik va metabolik asoratlari

Semizlik ko'plab og'ir metabolik buzilishlarga asos bo'lib, ayniqsa 2-tip qandli diabet, arterial gipertoniya, dislipidemiya, yurak ishemik kasalligi, gastroezofageal reflyuks, osteoartrit, podagra, nafas olish yetishmovchiligi va obstruktiv uyqu apnoesi bilan kechishi mumkin. Shuningdek, tana vazni ortishi





bilan tromboembolik xavflar, gemostaz buzilishlari va yurak qon-tomir muammolari o'sib boradi.

2. Onkologik va reproduktiv salomatlikka ta'siri

Ko'plab klinik tadqiqotlar semizlik bilan yomon sifatli neoplazmalar – xususan, ko'krak, bachadon, buyrak, oshqozon osti bezi, o't pufagi va yo'g'on ichak o'smalari o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Ayollarda reproduktiv disfunktsiya, erkaklarda esa testosteron darajasining pasayishi natijasida jinsiy salomatlik muammolari yuzaga chiqadi.

3. Umr davomiyligiga ta'siri

Tadqiqotlarga ko'ra, tana vazni indeksi (TVI) har 5 kg/m² ga ortganida, o'lim xavfi 31% ga oshadi. Morbid semizlik bilan og'rigan bemorlarning umr davomiyligi 8–10 yilga qisqaradi. Bu ma'lumotlar global ko'lamdagi 19 ta istiqbolli tadqiqot va 1,46 million kishilik ma'lumotlar bazasi asosida tasdiqlangan.

4. Davolash yondashuvlari va ularning samaradorligi

Konservativ davolash – parhez, jismoniy mashqlar, farmakoterapiya (sibutramin, orlistat) – qisqa muddatli natijalarga olib kelsa-da, uzoq muddatli vazn boshqaruvida samarasiz deb topilgan. Aksincha, bariatrik jarrohlik (gastrik bypass, sleeve gastrektomiya) ortiqcha vaznni barqaror kamaytirish va metabolik holatni yaxshilashda ustunlik qiladi.

Xulosa

Semizlik multifaktorial, surunkali, va hayot sifatiga hamda umr davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kasallik sifatida zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalasidir. Ushbu holat bilan kurashishda bariatrik jarrohlik eng samarali strategiya sifatida ko'rilmogda. Kelgusida semizlikka qarshi profilaktika, erta diagnostika va individual yondashuvlarni rivojlantirish — global sog'liqni saqlash tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmogda.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Obesity: Preventing and managing the global epidemic. WHO Technical Report Series, No. 894. Geneva: WHO, 2000.
2. Leung R. et al. Obesity and life expectancy: systematic analysis. *Lancet*, 2012; 380(9858):123–129.
3. Meldrum DR, et al. Obesity and cancer risk. *Journal of Clinical Endocrinology & Metabolism*, 2014; 99(12):4565–4574.
4. Sjöström L. Bariatric surgery and reduction in mortality. *New England Journal of Medicine*, 2007; 357:741–752.